

HURMATLI ANJUMAN ISHTIROKCHILARI!



Muhtaram Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: - “Bugungi kunda dunyoda ro’y berayotgan global ekologik muammolarga qarshi kurashish sayyoramizning yanada barqaror, farovon va xavfsiz kelajagini ta’minlash yo’lida barcha mamlakatlar va xalqlarni yaqinlashtirishga xizmat qiladi”. Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni “Atrof-muhit strategiyasi, sog’liqni saqlash va yashil iqtisodiyotning integratsiyasi – barqaror kelajak asosi” deb nomlashimiz, bejiz emas albatta. Anjumanda uzoq va yaqin xorijiy davlatlar - AQSH, Belorussiya, Hindiston, Turkiya, Eron, Turkmaniston, Qozog’iston, Tojikiston, Qirg’izistondan tashrif buyurgan hamkorlarimizning ishtiroki mazkur anjumanning yuksak ilmiy salohiyatini va keng xalqaro ahamiyatini yaqqol namoyon etdi.

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish, sog’liqni saqlash tizimini mustahkamlash hamda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga joriy etish masalalari global darajada eng dolzarb va ustuvor yo’nalishlarga aylanib bormoqda. Ushbu konferensiyada taqdim etilgan ilmiy tadqiqotlar, yangicha yondashuvlar va samarali takliflar barqaror rivojlanishga erishishda muhim poydevor bo’lib xizmat qiladi, degan umiddaman.

E’tiboringizga havola etilayotgan maqola va tezislarda to’plami anjumanning mazmunli natijasidir. Unda jamlangan ilmiy g’oyalar, tajribalar va tavsiyalar sohaga oid dolzarb masalalarning samarali yechimlari uchun asos yaratadi hamda kelajakdagi izlanishlar uchun yo’l-yo’riq ko’rsatadi.

Barcha ishtirokchilar va mualliflarga o’z minnatdorchiligimni bildirgan holda, sizlarga ilmiy faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, mustahkam sog’liq va yangi yutuqlar tilayman.

*Hurmat bilan, Mamasadikov Nurillo Shukrullayevich
“Central Asian Medical University” Rektori, Farg’ona viloyat Kengashi deputati!*

DEAR CONFERENCE PARTICIPANTS!

In the words of our esteemed President: - “The fight against global environmental problems occurring in the world today serves to bring all countries and people closer together to ensure a more stable, prosperous and secure future for our planet.” There’s a reason why we call this international scientific and practical conference “Integration of environmental strategy, health care and green economy - the basis of a sustainable future.” The participation of our partners from near and far abroad - the USA, Belarus, India, Turkey, Iran, Turkmenistan, Kazakhstan, Tajikistan, Kyrgyzstan - at the conference clearly demonstrated the high scientific potential and broad international significance of this conference.

Today, environmental protection, strengthening the health system, and implementing the concept of a green economy are becoming the most urgent and priority areas at the global level. I hope that the scientific research, new approaches, and effective proposals presented at this conference will serve as an important foundation for achieving sustainable development.

The collection of articles and abstracts presented to your attention is a meaningful result of the conference. The scientific ideas, experiences, and recommendations collected in it create the basis for effective solutions to pressing issues in the field and provide guidance for future research.

Expressing my gratitude to all participants and authors, I wish you great success in your scientific activities, good health, and new achievements.

*Yours faithfully, Mamasadikov Nurillo Shukrullayevich Rector of
Central Asian Medical University, Deputy of the Fergana Regional Council*